

ROSSIYA IMPERATORI SIYOSIY AGENTLIGINING BUXORO AMIRLIGIDAGI FAOLIYATI (TARIXSHUNOSLIK TAHLILI)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14394203>

R.J.Shukurov

Nizomiy nomidagi TDPU

“O’zbekiston tarixi”

kefedrasi dotsent v/b, PhD

Rossiya imeratori siyosiy agentligining Buxoro amirligidagi faoliyati va uning XIX asr 80 yillari – XX asr boshlarida amirlikning ichki va tashqi siyosiy boshqaruv jarayonlari va ayni vaqtida iqtisodiy sohalardagi ta’siri masalalarini o’rganish dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, XX asrning so’nggi o’n yilligi boshlaridan bugunga qadar amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ko’rsatib o’tilgan masalaning bir qator jihatlari ko’pgina tarixchilar tomonidan tadqiqot doirasiga tortildi va tahlil etildi, bu tadqiqotchilar orasida tarixchilardan O.A.Chernov hamda V.M.Matveyevalarning tadqiqotlari alohida o’ringa ega.

Rossiyalik tarixchilardan biri O.A.Chernov tomonidan yuqorida qayd etilganidek, 1886-1890 yillarda Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi siyosiy agenti²² bo’lgan N.V.Charikovning diplomatik faoliyatini yoritib beruvchi “N.V.Charikovning diplomatik faoliyati va tarixiy qarashlari” (“Diplomaticeskaya deyatelnost i istoricheskiye vzglyadi N.V.Charikova”) mavzusidagi Buxoro amirligi tarixinining davlatchiligi jarayonlari, uning manbashunosligi va ayni vaqtida diplomatik aloqalari tarixi yuzasidan ilmiy xulosalarni ko’rsatib beruvchi tadqiqot amalga oshirilgan²³. Dissertatsiyaning dastlabki bobida N.V.Charikovning hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlar o’rin olgan bo’lsa, keyingi boblar uning bevosita diplomatik faoliyati oid ma’lumotlarning tahliliga bag’ishlangan²⁴. Unda

²² 1885 йил 12 ноябрда Бухоро амирлигига «Россия императорлигининг сиёсий агентлиги» таъсис қилинган. Сиёсий агент чор Россиясининг расмий доимий вакили бўлиб, Петербург ва Тошкентнинг Бухоро ҳукумати билан қиласидаги ҳамма алоқалари шу агент орқали ўтар эди.

²³ Чернов О.А. Дипломатическая деятельность и исторические взгляды Н. В. Чарикова. Автореферат дис. ... кандидата исторических наук. Самара. 2001.

²⁴ Чариков Николай Валерьевич - (1855 йил 8 январь, Александровск уезди – 1930 йил 12 сентябрь, Истамбул, Туркия) – рус дипломати, гофмейстер, сенатор, 1877-1878 йиллардаги Россия-Туркия уруши иштирокчиси, шунингдек тарихчи ва файласуф, Рус тарих жамиятининг жаҳоний аъзоси. 1896-1897 йилларда Россиянинг Болгариядаги дипломатик агенти, 1897 йилда Берлиндаги элчи маслаҳатчisi, 1900 йилда Россиянинг Сербиядаги элчиси, 1905 йилда Россиянинг Нидерландиядаги элчиси, 1909-1912 йилларда Россиянинг Туркиядаги фавқулодда ва муҳтор элчиси. Н.В.Чариков 1883-1885 йилларда Туркистон генерал губернатори хузуридаги дипломатик маҳкамада кичик амалдор сифатида хизмат килган, 1886-1890 йилларда камер-юнкер унвонида Россия империясининг Бухоро амирлигидаги сиёсий агенти вазифасида фаолият кўрсатган.

N.V.Charikovning Yaqin sharq va Bolqonda Rossiya manfaatlarini aks ettirgan faoliyatiga to'xtalib o'tilgan va keyingi qismlarida uning Uzoq Sharq masalasidagi konsepsiyalariiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, dissertatsiya tadqiqoti davomida N.V.Charikovning tarixiy qarashlari hamda arxeografik tadqiqotlari masalaliga ham tarixshunoslik nuqtai-nazaridan yondashgan holda tahlil amalga oshirilgan. Dissertatsiyaning bu bobidagi asosiy masalalardan biri shubhasiz N.V.Charikovning O'rta Osiyoda, xususan, Buxoro amirligida yuritgan diplomatik faoliyati bilan bog'liq va biz ham muallifning aynan shu haqdagi fikrlariga e'tibor qaratamiz. Tadqiqotchi O.A.Chernovning ta'kidlab ko'rsatishicha, N.V.Charikovning O'rta Osiyoda barcha faoliyati uning o'zining hisobotlari va rasmiy hujjatlardan tashqari yana bir qator tarixchilar va tadqiqotchilar tomonidan ham o'rganib chiqilgan bo'lsada, ular orasida ikkita tadqiqot o'z mazmuni va mazkur masala yuzasidan muammolarning kompleks qamrab olganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi²⁵. Ulardan biri tarixchi A.Y.Sokolovning ilmiy ishlari bo'lib, u o'z tadqiqotlarida Rossiya imperiyasi va O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar tarixini o'rganish asnosida Buxorodagi Rossiya imperatori siyosiy agenti bo'lgan N.V.Charikovning faoliyatiga ham e'tibor qaratadi²⁶. N.V.Charikovning faoliyatini tahlil etar ekan, A.Y.Sokolov uning Rossiya va Buxoro o'rtasidagi savdo va iqtisodiy munosabatlarni o'zaro chambarchas bog'liq holda tashkil etish va yanada kuchaytirish orqali Buxoro amirligining Rossiya imperiyasiga bog'liqligi va qaramligini yanada kuchaytirish siyosatini olib borganligiga aniqlik kiritganligi, bundan tashqari, Rossiya fuqarolarining manfaatlarini Buxoro amirligi hududlarida har tomonlama himoya qilishi, Rossiya imperiyasi hukumati uchun zarur bo'lgan siyosiy va iqtisodiy sohaga oid ma'lumotlarni doimiy ravishda juda katta hajmda yig'ib borishi haqidagi ma'lumotlarga aniqlik kiritganligi haqida O.A.Chernov alohida ta'kidlab o'tadi²⁷.

O.A.Chernovning ta'kidlashicha shunday ahamiyatga ega bo'lgan ikkinchi tadqiqot ishi Tojikistonlik tarixchi V.M.Matveyeva tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, uning tadqiqoti asosan Rossiya imperatorining Buxoro amirligidagi siyosiy agentligi faoliyatiga, uning kundalik ish jarayonlari tahliliga va har ikki davlat o'rtasidagi muosabatlarni muvofiqlashtirib turishga qaratilgan siyosatni amalga

²⁵ Чернов О.А. Дипломатическая деятельность и исторические взгляды Н. В. Чарыкова. Автореферат дис. ... кандидата исторических наук. Самара. 2001. Стр.5-6

²⁶ Соколов А. Я. Торговая политика России в Средней Азии и развитие русско-афганских торговых отношений. Ташкент: "Фан", 1971.

²⁷ Чернов О.А. Дипломатическая деятельность и исторические взгляды Н. В. Чарыкова. Автореферат дис. ... кандидата исторических наук. Самара. 2001. Стр.5-6

oshirib borganligi haqidagi javrayonlar tavsifiga qaratilganlini ko'rsatadi²⁸. Biroq, O.A.Chernov V.M.Matveyevaning tadqiqoti haqida fikr bildirib, u o'zining tadqiqotini yozish jarayonida N.V.Charikovning ishlariga, esdaliklariga murojaat qilmaganligini, shunga qaramasdan ish ilmiy jihatdan juda yuqori saviyada yozilganligini ta'kidlaydi²⁹. O.A.Chernov tomonidan Rossiya imperiyasining siyosiy arboblaridan biri bo'lган N.V.Charikov faoliyatiga bag'ishlangan mazkur dissertatsiyada uning Turkiston general gubernatorligi mahkamasidagi diplomatik sohadagi faoliyatiga ma'lum darajada to'xtalib o'tilgan bo'lsa, N.V.Charikovning Buxoro amirligidagi rasman Rossiya imperatorining birinchi siyosiy agenti vazifasidagi faoliyatini, xususan, imperator tomonidan taqdim etilgan juda katta vakolatlardan foydalanib Buxorodagi siyosiy agent Buxoro amirligini o'zining ichki bozoriga aylantirishga intilgan Rossiya imperiyasining sarmoyadorlari manfaatlarini ko'zlab bojxona tizimi, sanoat, temir yo'l, pochta, telegraf ishlarini to'laligicha o'z nazoratiga olishi kabi jihatlarni yoritishga ko'proq e'tibor qaratgan va yuqorida qayd etilgan maslalarini ko'rsatib o'tgan.

Xulosa sifatida aytib o'tish kerakki, O'rta Osiyo xonliklari, xususan, Buxoro amirligi tarixi va bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar nafaqat O'zbekistonda, balki Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari tarixchilarining ham doimiy diqqat markazida bo'lган va o'zining dolzarbligini saqlab qolgan, shu jihatdan qaraganda bu borada Rossiya va Markaziy Osiyo tarixshunosligida xonliklar davri tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Garchi ularning ayrimlarida turli ixtiloflar va tafovutlar ko'zga tashlansada, ayni vaqtida ularda xonliklarning siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tarixi masalalari, tashqi munosabatlar bilan bog'liq masalalari, harbiy va diplomatik aloqalarining tahlili va boshqalarga oid bo'lган ko'plab qimatli ma'lumotlarni ko'rish mumkin. Ularning tarixshunoslik nuqtai-nazaridan qiyosiy tahlilini amalga oshirish esa Markaziy Osiyo tarixini yanada to'liqroq va mukammal o'rganish imkonini beradi, shu jihatdan Rossiya va Markaziy Osiyo tarixshunosligida mavzuga oid amalga oshirilgan har bir tadqiqot katta ahamiyat etishi shubhasizdir.

²⁸ Матвеева Н.В. Представительство Россия в Бухарском эмирата к его деятельность (1886-1917). Душанбе, 1994.

²⁹ Чернов О.А. Дипломатическая деятельность и исторические взгляды Н. В. Чарыкова. Автореферат дис. ... кандидата исторических наук. Самара. 2001. Стр.6